

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA ONLAYN O'YINLARNING O'RNI

Muxammadiyeva Laziza Sobirjon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Abstrakt. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish jarayonida onlayn o'yinlardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, onlayn o'yinlar orqali ingliz tilini o'rgatish ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, faol ishtirokini ta'minlaydi hamda so'z boyligini rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada onlayn o'yinlarning ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati, ularning o'quvchilarning motivatsiyasi va bilim olish samaradorligiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: onlayn o'yinlar, boshlang'ich ta'lim, ingliz tilini o'qitish, interaktiv metodlar, motivatsiya, axborot texnologiyalari.

РОЛЬ ОНЛАЙН-ИГР В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Мухаммадиева Лазиза Собирджон кизи

студентка Самаркандского государственного

педагогического института

Аннотация. В данной статье анализируется значение и эффективность использования онлайн-игр в процессе обучения английскому языку в начальных классах. Широкое применение информационно-коммуникационных технологий в современной системе образования способствует более интересной и

эффективной организации учебного процесса. Особенно с учётом возрастных особенностей младших школьников, обучение английскому языку с помощью онлайн-игр повышает их интерес к урокам, обеспечивает активное участие и способствует развитию словарного запаса. В статье рассматривается педагогическая значимость онлайн-игр в образовательном процессе, а также их влияние на мотивацию учащихся и эффективность усвоения знаний.

Ключевые слова: онлайн-игры, начальное образование, преподавание английского языка, интерактивные методы, мотивация, информационные технологии.

THE ROLE OF ONLINE GAMES IN TEACHING ENGLISH IN PRIMARY SCHOOL

Muxammadiyeva Laziza Sobirjon qizi

Student of Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract. *This article analyzes the importance and effectiveness of using online games in teaching English to primary school students. In the modern education system, the widespread use of information and communication technologies helps make the learning process more engaging and effective. Considering the age characteristics of young learners, teaching English through online games increases students' interest in the lesson, encourages active participation, and helps develop their vocabulary. The article highlights the pedagogical significance of online games in the educational process and their impact on students' motivation and learning outcomes.*

Keywords: *online games, primary education, teaching English, interactive methods, motivation, information technology.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ingliz tilini o'rganish oson emas, chunki bu yoshdagi bolalar bilimni asosan turli o'yin faoliyatlari orqali o'zlashtirishga moyil bo'ladilar. An'anaviy o'qitish usullari esa ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini

tezda kamaytirishi yoki butunlay so'ndirishi mumkin¹. Shuning uchun ingliz tilini o'qitishda zamonaviy va interaktiv ta'lim usullaridan, xususan, ta'limiy o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Turli xil o'yinlar yosh o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi hamda tilni samarali va mazmunli o'rganishga yordam beradi. O'yin metodi o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan samarali pedagogik usullardan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yinlar atrof-muhitni anglash va bilimlarni ongli ravishda egallashning asosiy faoliyati hisoblanadi. O'yin usuli o'quvchilarni passiv tinglovchilardan dars jarayonining faol ishtirokchilariga aylantiradi. Bu usul orqali bolalar yangi so'z va iboralarni majburan emas, balki qiziqish bilan o'rganadilar. O'yin jarayonida o'quvchilar xato qilishdan qo'rqmasdan o'z fikrlarini erkin ifoda etadilar, bu esa ularning og'zaki nutq faolligini oshiradi. Bundan tashqari, o'yin usuli tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. O'yinlar orqali o'quvchilarda jamoada ishlash, muloqot madaniyati, bir-birini tinglash va qoidalarga rioya qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi.

O'yin asosida ta'lim berish o'quvchilarning nafaqat bilimlarini, balki ularning ijtimoiy, aqliy va hissiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu yondashuv bolalarda uzoqmuddatli muvaffaqiyatga xizmat qiluvchi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. O'yin jarayonida o'quvchilar turli muammolarga duch keladilar va ularni ijodiy yo'l bilan hal qilishga harakat qiladilar. Bu esa tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Shuningdek, o'yinlar orqali hamkorlik, bo'lishish va kelishuvga erishish kabi ijtimoiy ko'nikmalar mustahkamlanadi.

Hozirgi kunda turli xil online zamonaviy o'yinlarni qo'llash usullari mavjud. Jumladan, kompyuter o'yinlari. O'qituvchilar ingliz tilini o'rgatishda maxsus ta'limiy kompyuter o'yinlaridan foydalanishlari mumkin. Masalan, "Duolingo", "Kahoot!" kabi platformalar til o'rganishni qiziqarli qiladi. Jamoaviy o'yinlar esa o'quvchilarning birgalikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Misol uchun, "Scrabble" yoki "Boggle" kabi so'z o'yinlari o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Rol o'ynash o'yinlari (role-playing games) o'quvchilarga tilni amalda qo'llash imkonini

¹ Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. — Cambridge, 2001.

beradi. Bu usul orqali o'quvchilar turli vaziyatlarda qanday gapirish kerakligini o'rganadilar.

Bugungi kunda keng qo'llanilayotgan mobil ilovalar yordamida o'quvchilar o'zlari uchun qulay vaqtda va joyda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'quv jarayonini uzluksiz davom ettirishga yordam beradi. O'yinli texnologiyalarni o'rganish samaradorligi bo'yicha bir qancha olimlar tomonida turli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular o'yinli texnologiyalarning o'quv jarayonidagi samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Oxford universiteti tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, o'quvchilar o'yinlar orqali yangi so'zlarni eslab qolish darajasi an'anaviy o'qitish metodlaridan 20% yuqori ekanligi aniqlangan. Boshqa bir tadqiqotda esa, "Kahoot!" platformasidan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini va ishtirokini sezilarli darajada oshirganligi ko'rsatilgan. James Paul Gee (2007) ozining "What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy"¹ asarida o'yinlarning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'siri haqida so'z yuritadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, video o'yinlar o'quechilarning mantiqiy fikrlashini, muammo hal qilish ko'nikmalarini va yangi bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Jan L. Plass, Bruce D. Homer va Charles K. Kinzer (2015) "Educational Psychologist" jurnalida chop etilgan maqolalarida, o'yinli texnologiya-laming ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatini o'rganganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularga murakkab mavzularni o'zlashtirishda yordam beradi. Sebastian Deterding, Dan Dixon, Rilla Khaled va Lennart Nacke (2011) "From Game Design Elements to Gamefulness": Defining "Gamification" asarida gamifikatsiya tushunchasini yoritadi va uning ta'limdagi qo'llanilishiga e'tibor qaratadi. Ularning tadqiqotlari o'yin elementlarini o'quv jarayoniga kiritish o'quvchilarni rag'batlantirishda katta rol o'ynashini ko'rsatadi. Oxford University Press (2020) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, raqamli o'yinlarning til o'rganishga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli o'yinlar orqali o'quvchilar yangi so'zlarni an'anaviy metodlarga qaraganda tezroq va samaraliroq o'rganadilar. Sababi hozirgi kundagi yosh avlod tez rivojlanib borayotgan

¹ James Paul Gee (2007). "What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy"

internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri sababli diqqat davomiyligi qisqa va ko'proq rangli va qisqa metrajli videolarni ko'rishni afzal ko'rishadi shu sababli ularga tilni o'rgatishda yoki lug'at yodlatishda ko'proq zamonaviy online o'yinlar eng samarali usullardan biri deb aytilmoqda. Quyida ba'zi online o'yinlarni ko'rib chiqamiz:

Quizizz – bu o'quvchilarning bilimini qiziqarli testlar va viktorinalar orqali tekshirish imkonini beruvchi interaktiv platformadir. Ushbu platforma orqali o'quvchilar so'z boyligini mustahkamlashlari, grammatikani takrorlashlari hamda dars jarayonida faol ishtirok etishlari mumkin. Quizizz o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratib, ularning motivatsiyasini oshiradi.

Kahoot – ingliz tilini o'rganishda keng qo'llaniladigan o'yin asosidagi ta'lim platformalaridan biridir. U orqali o'qituvchi savol-javoblar asosida viktorinalar tashkil qilishi mumkin. Kahoot o'quvchilarning tez fikrlashini rivojlantiradi va darsni yanada qiziqarli hamda interaktiv tarzda o'tkazishga yordam beradi.

Wordwall – bu turli xil interaktiv mashqlar va o'yinlar yaratishga mo'ljallangan platforma hisoblanadi. Unda so'zlarni moslashtirish, to'ldirish, juftlash kabi ko'plab mashqlar orqali o'quvchilar yangi so'zlarni oson eslab qolishlari mumkin. Wordwall ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda qulay va samarali vosita hisoblanadi.

LearningApps – bu ta'limiy o'yinlar va interaktiv mashqlar yaratishga imkon beruvchi platforma bo'lib, o'qituvchilarga turli xil topshiriqlar tayyorlash imkonini beradi. Ushbu platforma yordamida o'quvchilar tinglab tushunish, o'qish va so'zlarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda nafaqat til ko'nikmasini shakllantiradi balki ularda kompyuter savodxonligini ham oshiradi. Zamonaviy dunyoda bu ko'nikmalarga ega bo'lgan har qanday shaxs jamiyatda o'z o'rnini bema'lol topoladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim va samarali usullaridan biri hisoblanadi. O'yinlar orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi hamda bilimlarni oson va samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, yosh o'quvchilar

uchun o'yin jarayoni nafaqat hordiq chiqarish, balki yangi bilimlarni egallashning tabiiy va qiziqarli yo'li hisoblanadi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, dars davomida onlayn o'yin platformalari va interaktiv mashqlardan foydalanish o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, talaffuzini yaxshilash hamda ingliz tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda sog'lom raqobat muhitini yaratadi, ularning mustaqil fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababli ingliz tilini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan samarali foydalanish o'quv jarayonini yanada boyitadi va ta'lim sifatini oshiradi. Zamonaviy pedagogning asosiy vazifalaridan biri esa o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, innovatsion metodlar va texnologiyalarni dars jarayoniga joriy etishdan iboratdir. Faqat shundagina o'quvchilar ingliz tilini nafaqat o'rganadilar, balki undan erkin foydalanishga ham erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
2. Wright A., Betteridge D., Buckby M. Games for Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
3. Ur P. A Course in Language Teaching: Practice and Theory. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996.
4. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001
5. Shin J. K., Crandall J. Teaching Young Learners English: From Theory to Practice. – Boston: National Geographic Learning, 2014.
7. <https://sanako.com/why-should-teachers-use-language-learning-games>
8. <https://www.athenacareers.edu/understanding-child-psychology-makes-you-a-more-effective-educator/>
9. <https://www.verywellmind.com/what-is-child-psychology-2795067>
cyberleninka.ru